

YANGI O‘ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

Jurayev Shamshod Akram o‘g‘li,
SamISI talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi tizimida amalga oshirilgan islohotlar tahlil qilinadi. Xususan, davlat hokimiyati organlarining shakllanishi, ularning funksional vakolatlari kengaytirilishi hamda boshqaruv tizimining bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinishi yoritiladi. Shuningdek, Yangi O‘zbekistonda demokratik tamoyillarning joriy etilishi, fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi va davlat xizmatlari samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: davlat boshqaruvi, islohotlar, modernizatsiya, demokratik institutlar, fuqarolik jamiyati, ochiqlik, shaffoflik, raqamlashtirish.

Аннотация. В данной статье анализируются реформы, проведенные в системе государственного управления Республики Узбекистан в годы независимости. В частности, освещаются вопросы формирования государственных органов, расширения их функциональных полномочий и постепенной модернизации системы управления. Также на научной основе рассматриваются меры, направленные на внедрение демократических принципов в Новом Узбекистане, развитие институтов гражданского общества и повышение эффективности государственных услуг.

Ключевые слова: государственное управление, реформы, модернизация, демократические институты, гражданское общество, открытость, прозрачность, цифровизация.

Abstract. This article analyzes the reforms implemented in the public administration system of the Republic of Uzbekistan since independence. Specifically, it highlights the formation of state bodies, the expansion of their functional powers, and the gradual modernization of the governance system. It also examines, based on scientific research, measures aimed at introducing democratic principles in the New Uzbekistan, developing civil society institutions, and improving the efficiency of public services.

Keywords: public administration, reforms, modernization, democratic institutions, civil society, openness, transparency, digitalization.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, jamiyat hayotining barcha sohalarida tub burilishlar yuz berdi. Ayniqsa, davlat boshqaruvi tizimini yangidan shakllantirish va uni zamonaviy demokratik talablar asosida rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Sobiq markazlashgan ma‘muriy-buyruqbozlik tizimidan voz kechib, milliy davlatchilik an‘analari hamda xalqaro tajribaga asoslangan boshqaruv modelini yaratish zarurati yuzaga keldi. Shu jihatdan, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, hokimiyat tarmoqlari o‘rtasida muvozanatni ta‘minlash va fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirishga qaratildi. Davlat boshqaruvi tizimidagi islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilib, dastlab konstitutsiyaviy-huquqiy asoslar yaratildi. 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiya davlat hokimiyatining uch tarmoqqa — qonun chiqaruvchi,

ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishini mustahkamlab berdi. Bu esa demokratik davlat qurish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi. Shu bilan birga, davlat boshqaruvi organlarining vakolatlarini aniq belgilash, ularning o‘zaro hamkorligini ta‘minlash hamda ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mustaqillikning ilk yillarida mamlakatda barqarorlikni ta‘minlash va davlat institutlarini shakllantirish asosiy vazifa bo‘lgan bo‘lsa, keyingi bosqichlarda boshqaruv tizimini liberallashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish hamda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi. Bu borada davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish faqat tashkiliy o‘zgarishlar bilan cheklanmay, balki boshqaruv madaniyatini yangilashni ham o‘z ichiga oldi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta‘kidlaganidek: *“Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish — bu avvalo, jamiyatni demokratlashtirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta‘minlashning muhim shartidir.”*¹ Ushbu fikr davlat boshqaruvi islohotlarining asosiy maqsadi inson manfaatlarini ta‘minlashdan iborat ekanini ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar yangi bosqichni boshlab berdi. Xususan, Shavkat Mirziyoyev rahbarligida Yangi O‘zbekiston davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, uning ochiqligi va shaffofligini oshirish, davlat xizmatlarini aholiga yaqinlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning quyidagi fikri ham bu jarayonning mohiyatini ifodalaydi: *“Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak.”*² Shuningdek, davlat boshqaruvi tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish, davlat xizmatlarini elektron shaklga o‘tkazish va ortiqcha ma‘muriy tartib-taomillarni qisqartirish orqali samaradorlikni oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu esa o‘z navbatida davlat organlari faoliyatining shaffofligini ta‘minlash va korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Umuman olganda, mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi tizimida amalga oshirilgan islohotlar mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil bo‘lib, demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari asarida ham davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish masalasiga alohida e‘tibor qaratilib, quyidagi muhim g‘oya ilgari suriladi: *“Davlat boshqaruvida samaradorlik va natijadorlikni ta‘minlash – bu eng avvalo, rahbarlarning mas‘uliyati va xalq oldidagi javobgarligini kuchaytirish bilan chambarchas bog‘liqdir.”*³ Bundan tashqari, Prezident o‘z nutq va asarlarida raqamli transformatsiya jarayonlariga ham alohida urg‘u berib, *“Raqamli texnologiyalarni keng*

¹ O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 1997.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. — Toshkent, 2017-yil 22-dekabr.

³ Mirziyoyev, Sh. (2020). *Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari*. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

**“XXI ASRDA TARIXIY ONG, FALSAFIY TAFAKKUR, PEDAGOGIK
VA LINGVOMADANIY YONDASHUVLAR”
XALQARO ILMIIY-NAZARIY KONFERENSIYA MATERIALLARI**

joriy etish orqali biz davlat boshqaruvida byurokратиyani keskin qisqartiramiz va xizmatlar sifatini yangi bosqichga olib chiqamiz”, ⁴deya ta’kidlaydi. Bu esa davlat boshqaruvi tizimining zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlanayotganini ko’rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, mustaqillik yillarida O’zbekiston davlat boshqaruvi tizimida amalga oshirilgan islohotlar tizimli, kompleks va bosqichma-bosqich yondashuv asosida olib borilgan. Dastlabki bosqichlarda e’tibor davlat institutlarini shakllantirish va ularning normativ-huquqiy bazasini mustahkamlashga qaratilgan. Ushbu jarayonda konstitutsiyaviy huquqiy asoslar ishlab chiqildi, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlariga bo‘linishi prinsipini amaliyotga joriy etish orqali davlat boshqaruvi institutlari mustahkamlandi. Shu tarzda boshqaruv tizimining nazariy va huquqiy poydevori yaratilib, ma’muriy va strategik qarorlar qabul qilish mexanizmlari samarali ishlashini ta’minlashga zamin yaratildi. Bu jarayon, shuningdek, davlat organlarining vakolatlarini aniq belgilash va ularning fuqarolarga hisobdorligini ta’minlashga xizmat qildi. Keyingi bosqichlarda boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish va uning samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratildi. Davlat organlarining ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligini oshirish orqali fuqarolarning siyosiy ishtiroki kengaytirildi, bu esa demokratik tamoyillarni amaliyotga tatbiq etishda muhim omil bo‘ldi. Shu bilan birga, raqamlashtirish va elektron hukumat tizimlarini joriy etish davlat xizmatlarini soddalashtirdi, qarorlar qabul qilish jarayonlarini tezlashtirdi va aholining davlat organlariga ishonch darajasini oshirdi. Monitoring va baholash mexanizmlari orqali boshqaruv jarayonlaridagi kamchiliklar aniqlanib, ularni tezkorlik bilan tuzatish imkoniyati yaratildi. Natijada, boshqaruvning samaradorligi va fuqarolarga xizmat ko’rsatish sifati sezilarli darajada yaxshilandi.

S-Strengths (Kuchli tomonlar)	Davlat boshqaruvining normativ-huquqiy asoslari mustahkamlangan. Hokimiyatlarning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlariga bo‘linishi prinsipining tatbiq etilishi. Davlat organlarining ochiqligi va shaffofligini oshirishga qaratilgan islohotlar.
W-Weaknesses (Zaif tomonlar)	Ayrim boshqaruv mexanizmlarining yetarlicha ishlamasligi Kadrlar malakasi va institutlararo hamkorlik cheklangan. Monitoring va baholash mexanizmlari ayrim hududlarda yoki sektorlar bo‘yicha rivojlanmagan.
O-Opportunities (Imkoniyatlar)	Global tajriba va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish. Fuqarolik jamiyati institutlarini keng jalb qilish. Raqamli platformalarni kengaytirish va xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini kuchaytirish.

⁴ Mirziyoyev, Sh. (2019). *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

**“XXI ASRDA TARIXIY ONG, FALSAFIY TAFAKKUR, PEDAGOGIK
VA LINGVOMADANIY YONDASHUVLAR”
XALQARO ILMIIY-NAZARIY KONFERENSIYA MATERIALLARI**

T-Threats (Tahdidlar)	Siyosiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy beqarorlik xavfi. Kadrlar salohiyatining yetarli darajada rivojlanmasligi. Innovatsiyalarni tatbiq etishdagi kechikishlar.
-----------------------	---

1.1-SWOT analiz

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, mustaqillik yillaridagi islohotlar nafaqat tashkiliy va huquqiy, balki iqtisodiy va texnologik jihatlarni ham o‘z ichiga olgan kompleks jarayon sifatida amalga oshirilgan. Har bir bosqichda boshqaruv mexanizmlari optimallashtirilib, ularning fuqarolar talablariga moslashuvchanligi kuchaytirildi. Shu bilan birga, davlat boshqaruvi tizimi institutsional jihatdan kuchaytirilib, qaror qabul qilish jarayonining samaradorligi va tezkorligi oshdi. Bu esa mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va strategik barqarorlikni ta‘minlash imkonini yaratdi. Bundan tashqari, islohotlar fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishiga ham xizmat qilmoqda. Davlat organlari faoliyatini jamiyat manfaatlariga yo‘naltirish, demokratik tamoyillarni mustahkamlash va fuqarolarni boshqaruv jarayonlariga faol jalb qilish orqali boshqaruv tizimi nafaqat samaradorlik, balki shaffoflik va demokratiklik mezonlariga ham moslashdi. Shu tariqa, mustaqillik yillarida olib borilgan islohotlar konseptual va amaliy jihatdan davlat boshqaruvinu modernizatsiya qilishga xizmat qilgan, ularning natijalari esa kelajakdagi strategik islohotlar uchun ilmiy va amaliy zamin yaratgan.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach amalga oshirilgan davlat boshqaruvi tizimidagi islohotlar mamlakat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Mazkur jarayon izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirilib, avvalo mustahkam konstitutsiyaviy-huquqiy poydevor yaratildi, so‘ngra esa boshqaruv tizimini demokratlashtirish, liberallashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar hayotga tatbiq etildi. Davlat hokimiyatining uch tarmoqqa bo‘linishi, ularning o‘zaro muvozanati va hamkorligini ta‘minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash ushbu islohotlarning asosiy natijalaridan biri bo‘ldi. Shu bilan birga, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish jarayoni faqat tashkiliy-huquqiy o‘zgarishlar bilan cheklanib qolmay, balki boshqaruv madaniyati, ochiqlik va hisobdorlik tamoyillarini joriy etish orqali yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi shakllanib, u davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni tubdan yangicha asosda qurishni nazarda tutadi. Ushbu konsepsiya markazida inson qadri, uning huquq va manfaatlaru ustuvorligi tamoyili turadi. “Yangi O‘zbekiston” sharoitida davlat boshqaruvi tizimi yanada ochiq, shaffof va xalqchil bo‘lishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, elektron hukumat tizimini rivojlantirish, byurokratik to‘siqlarni qisqartirish hamda davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta‘minlash orqali aholining davlat

boshqaruvidagi ishtiroki kengaymoqda. Bu esa fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishiga, jamoatchilik nazoratining kuchayishiga hamda korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borilishiga xizmat qilmoqda. Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish jarayoni uzluksiz va kompleks xarakterga ega bo‘lib, u mamlakatni modernizatsiya qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi asosida amalga oshirilayotgan islohotlar esa nafaqat davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, balki demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lida mustahkam poydevor yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev — *Oliy Majlisga murojaatnoma*, Toshkent, 2017, bet 3–15.
2. Islom Karimov — *O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari*, Toshkent, 1997, bet 45–78.
3. Islom Karimov — *Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma‘rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li*, Toshkent, 2003, bet 22–60.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi — Toshkent, 1992, bet 10–25
5. Demokratik institutlar va davlat boshqaruvi. — Toshkent: 2018, bet 52–70.
6. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. — Toshkent: 2021, bet 88–103.
7. Mirziyoyev, Sh. (2020). *Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari*. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
8. Mirziyoyev, Sh. (2019). *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
9. Ro‘zimurodov S. M. OILADA YANGICHA IQTISODIY TAFAKKUR MADANIYATI TRANSFORMASIYA: MUAMMO VA YECHIM.(O‘ZBEKISTON MISOLIDA) //ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЈЛАР ВАЗИРЛИГИ ҚАРШИ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ ТАХРИРИЯТ ҲАЙЪАТИ: Бош муҳаррир. – С. 88.
10. Рузимуродов С., Артиков Ш. АНАХАРСИС-ВЕЛИКИЙ ФИЛОСОФ ИЗ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ //Инновации в технологиях и образовании. – 2016. – С. 340-342
11. Siroj, RO‘ZIMURODOV. "YOSHLARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZI RIVOJLANISHIDA MILLIY VA DUNYOVIY QADRIYATLARNI UYG‘UNLASHTIRISHNING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLIL." «ACTA NUUZ» 1.1.10. 1 (2024): 184-186.